

Ahmad Yassaviy hikmatlari haqida

Iroda Yoqubova G'aybulla qizi

Sam.DU Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari haqida, Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar, Yassaviy tariqatidagi diniy mukammallik haqida to'liq fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** hikmatlar, adabiy shaxsiyat, diniy mukammallik, axloqiy tamoyillar.*

Kirish:

Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar, adolatsiz va bir yoqlama tanqidlar, bir-biriga zid va mutlaqo teskari munozaralar - bularning deyarli barchasi asosan shu zaminda paydo bo'lgan. Ammo buyuk Yassaviy ijodiyoti ta'qiqlash bilan to'xtab qoladigan, tanqid va tahqirlashdan ahamiyatini boy beradigan bir ijod emas. Aksincha, u hech qanaqa qarshilik va zo'ravonlikka mag'lub bo'lmaydigan she'riy merosdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Turkiy xalqlar adabiyotida salmoqli o'rin egallagan so'fiy shoirlardan biri – Ahmad Yassaviydir. Uning hayoti haqida mufassil ma'lumotlarni yetarli darajada yetib kelgan deyish qiyin. Asosiy tomonlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Turkistonda Yassi shahrida, ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhurdir. Ahmad Yassaviyning yoshligi og'ir kechgan. Otasi juda erta vafot etgan. So'fiy shoir dastlab Arslonbobday yirik mutasavvuf olim qo'lida tarbiyalangan. So'ng Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsilni davom ettirgan.

"Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan

muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirsu havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlaridan ogohlantiradi. Barcha gap uni qanday o'qish va qanday anglash, tushunibgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir.

Natijalar:

Agar "Devoni hikmat"ni mutolaa qilib, ozmi-ko'pmi o'z ahvolimizni tushunsak, undagi umumiy ruh, mazmun va ma'rifat shavqi qaysi bir darajada aqldan jaholatni, qalbdan g'aflatni chetlashtirsa - urinishimiz besamar ketmagan bo'ladi. Binobarin, biz tosh chaynasak-da, haqiqatning kuch-quvvati, ishqning hayotbaxsh zavqiga suyanib, inonib yashashga urinmog'imiz kerak. Quvonarlisi shundaki, oxirgi o'n-o'n besh yil davomida "Devoni hikmat"ni xalqqa qaytarish, keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda xayrli ishlar amalga oshirildi. Asar Toshkentda, Turkiyada, Moskva va Qozog'istonda chop qilindi.

Muhokama:

Ahmad Yassaviy o'z ijodini chig'atoy tilida qilgan. "Xoja Ahmad Yassaviyning bizgacha yetib kelgan asari "Devoni hikmat" bo'lib, "Devoni hikmat"da ilohiy ishq va oshiqlik, Haqqa yetish sirlari, Zokir va uning ma'naviy martabasi, ma'rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta'sirli ohanglarda yoritib berilgan. "Devoni hikmat"dagi barcha she'rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan". "Devoni hikmat" asaridagi axloqiy tamoyillar tahlili avvalo diniy mezonlar asosida baholanadi. Shu bilan birgalikda undagi masalalar metafizik voqealarga ishora qiladi.

Yassaviy tariqatidagi diniy mukammallik ham o'ziga xos tarzda bo'lgan. "Devoni hikmat"da bayon qilingan she'riy hikmatli yo'riqnomalar o'z davri uchun yuksak ahamiyat kasb etgan. Uning she'rlari esa keyingi davr ijodkorlarining ham diqqatida bo'lib kelgan. XX asrning yirik jadid namoyandasi Abdurauf Fitratning ta'kidlashiga ko'ra, Yassaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'lidir. Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq

adabiyoti atalgan she'rlar bilan barobar"dir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'rta Osiyo shayxlari, eshonlari Yassaviyni o'zlariga pir, ustoz deb bilganlar. Yassaviy hikmatlarida Alloh inson borlig'ining eng oliy zuhuroti ekanligi ifoda qilinadi. Zotan, Xudo dilda yashaydi. Bu dil ilohiy joziba kasb qilmog'i uchun Alloh inoyati ila tubdan yangilanadi. Shundagina qalbdagi evrilish sodir bo'ladi. Bu –haqiqiy ishq. Arslon Bob va Ahmad Yassaviy esa ana shu ishqning haqiqiy sohiblaridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya–Ziyo. 2020.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001.
4. A.Fitrat, Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar, 2-jild, Тошкент, Ma'naviyat, 2000.